

**ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI**

*Tillayeva Mohidil Abidjonovna*

*Andijon shahar 32- umumiy o'рта ta'lim maktabi, ona tili va adabiyoti fani  
o'qituvchisi.*

**DARSNING BLOK SXEMASI:**

<b>№</b>	<b>Darsning qismlari</b>	<b>Belgilangan vaqt.</b>
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O'tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

**DARSNING MAQSADI:**

- 1) Ta'limiy:** O'quvchilarni bobomiz Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish. Mavzu yuzasidan tushuncha berish.
- 2) Tarbiyaviy:** O'quvchilarning ajdodlardan qolgan madaniy, ma'naviy meroslarga hurmat hissini shakllantirish.
- 3) Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning erkin fikrlash, o'z fikrini erkin bayon eta olish, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish.

**DARS MATERIALLARI VA JIHOZLARI:**

1. "Adabiyot" darsligi.
2. A.Navoiyning portreti, hayoti tasvirlangan rasmlar.
3. Navoiy asarlari, slaydlar.
4. Doska, bo'r, daftar.

5. Tarqatma material: darsda o'rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

### **DARS USULI:**

- Tushuntirish
- Savol-Javob
- Suhbat
- Klaster

### **I. DARSNING BIRISHI:**

#### **TASHKILY QISM:**

##### **I.**

- o'quvchilar bilan salomlashish
- o'quvchilar davomadini aniqlash
- sinfning darsga tayyorgarligini tekshirish

##### **II.**

- o'tilgan mavzuni takrorlash

*Dars jihozlari:*

- ✓ tarqatma materiallar
- ✓ kompyuter
- ✓ proyektor
- ✓ slayd
- ✓ reklama roligi

##### **III.**

**Yangi material ustida ishlash.**

- **Alisher Navoiyni nima uchun g'azal mulkining sultoni deb ataymiz?**
- **Alisher Navoiy hayoti va ijodi nima maqsadda o'rganiladi?**
- **Sizningcha, Alisher Navoiyning buyukligi nimada?**
- **Navoiy merosining qanday ma'naviy ahamiyati bor? Mavzuga oid ma'lumotlar slaydlar orqali ko'rsatilib tushuntiriladi.**

## II. DARSNING MAZMUNI:

6. Darslikning dasturi, maqsadlari va vazifalari.
7. Darslikdagi materiallar tizimi va uni o'rganish uslubiyati va usullari.
8. O'rganiladigan ma'lumotlar hayotiy bog'liqligi..

## III. DARS MAZMUNINI RO'YOBGA CHIQRISH USTIDA ISHLASH:

9. O'qituvchining 10-sinfidagi "Adabiyot" fani vazifalari va xususiyatlari, darslikdagi materiallar tizimi, uni o'rganish uslubiyati va usullari to'g'risida tushuntirish.

## IV. YANGI DARS BAYONI:

**1-slayd:** Alisher Navoiyning bolaligi 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrining Bog'i Davlatxona deb atalmish joyida tavallud topgan. 4-5 yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini sevib mutolaa qilgan. 8-9 yoshidan boshlab she'rlar mashq qila boshlagan.



### 2-slayd.

Alisher Navoiy 12 yoshida "Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduznihon bo'lg'och quyosh..." Matla'si bilan boshlanuvchi g'azali bilan "Malik ul-kalom" mavlono Lutfiy e'tirofiga sazovor bo'lgan.

### 3-slayd

A. Navoiy - davlat va jamoat arbobi.

1469-yilda Muhrdor.


1472-74-yillarda Vazir.

1478-80-yillarda Astrobodda hokim lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. Do'sti Husayn Boyqaro unga "Amirul-Kabir"(eng buyuk amir), "Amirul muqarrab" (podshohga eng yaqin amir) unvonlarini bergan.

#### 4-slayd:

A.Navoiy - ilm ma'rifat homiysi, xalqparvar shoir. U el-yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'ida juda ko'plab xayrli ishlarni amalga oshiradi. Ko'plab madrasalar, masjidlar, shifoxona, kutubxona, ko'priklar qurdirgan, ariqlar qazdirgan. Alisher

Navoiy 1483-1485-yillarda turkiyda ilk va yagona "Xamsa" (Beshlik) asarini yaratdi.



- ✓ Alisher Navoiy-tilshunos olim.
- ✓ A.Navoiy "Muhokamatul-lug'atayin" (Ikki til muhokamasi) asarida turkiy va fors tillarini qiyoslab, turkiy tilning go'zalligini, nafis va jozibador, boy til ekanligini isbotlab bergan.

"Mezon ul-avzon" va "Tarixi mulki ajam" asarlari haqida:

- ✓ "Mezon ul-avzon" asari adabiyotshunoslikka bag'ishlangan bo'lib, aruz vazni, uning ruknlari haqida ilmiy ma'lumot beradi.
- ✓ Alisher Navoiy o'zining "Tarixi mulki ajam" (Ajam shohlari tarixi) asarida Eron shohlari haqida keng ma'lumot beradi.

"Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir".

**Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".**

#### **IV. MUSTAHKAMLASH.**

Ish musobaqa usulida tashkil qilinadi. O'quvchilar "Nazm", "Navo", "Sharq she'riyati yulduzlari" guruhlariga bo'linadi.

#### **"Aqliy Hujum"**

**Savollar.**

**Nazm guruhiga:** Navoiyning to'liq ismi? (Nizomiddin) Butun turk dunyosi Alisher Navoiyni "Shams ul- millat" deb ataydi. Buning ma'nosi nima? (Millat quyoshi). "Foniy" taxallusining ma'nosini ayting? ("Fano" - yo'qlik, vaqtincha so'zidan olingan)

**"Navo" guruhiga:** "Navo" so'zining ma'nosi ? (Kuy) Alisher Navoiy bolaligida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridan tashqari yana kimning qaysi asarini qiziqish bilan o'qiydi. (Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston").

**"Sharq she'riyati yulduzlari" guruhiga:** Navoiy o'z asarida Samarqandni nima deb ataydi? (Firdavsmonand, ya'ni jannat misol deb ta'riflaydi). "Hayrat ul- abror" dostonining ma'nosini ayting? ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi"). Alisher Navoiyning "Xamsa" asari qachon yaratilgan? ( 1483-1485-yillar oralig'ida ).

Savol- javobdan so'ng "Klaster" usuli orqali guruhlar ishi nazorat qilinadi.

"Nazm" guruhi Alisher Navoiy asarlari, "Navo" guruhi Alisher Navoiy g'azallarini klasterga joylashtirib chiqishadi "Sharq she'riyati yulduzlari" guruhi esa "Shoirilar ijodida Navoiy madhi" sharti bo'yicha bilimlarni namoyish etadi

El-yurt baxtin bilgay saodat  
Sinovlarga qilgaydir toqat,  
Kamtarlikni aylagay odat  
Navoiyni o'qigan odam.  
Vaqt g'animat o'tkazmang bekor,  
She'r, g'azalni yod oling takror.  
Topar dardi hasratiga kor  
Navoiyni o'qigan odam.  
Turk nazmida yurg'izib qalam,  
Ayladi ul mamlakatni yakqalam.  
G'azallari zavol bilmagan  
She'riyat sultoni Navoiy bobom

## “Bahs-munozara”

### Savollar.

**1. “Nazm” guruhiga: Savol:** Yurtimizda Alisher Navoiy nomi bilan bog’liq qanday joy va mussasasa nomlarini bilasiz?

**Javob:** Navoiy viloyati, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxon, Alisher Navoiy nomidagi milliy bog’...

**2. “Navo” guruhiga:** Alisher Navoiy haqida zamondoshlar fikrini keltiring.

**3. “Sharq she’riyati yulduzlari” guruhiga: Savol:** Alisher Navoiy sharafiga qayerlarda yodgorlik haykallari o’rnatilgan?

**Javob:** Toshkent shahrida, Navoiy viloyatida, Ozarboyjon Respublikasi poytaxti Bokuda, Yaponiya poytaxti Tokioda, Rossiya poytaxti Moskva shahrida.

Darsa yakunida: “Bugungi darsda siz Alisher Navoiy haqida nimalarni o’rgandingiz?” degan savolga o’quvchilar javobi olinadi. Ballar jamlanadi. G’olib guruh aniqlanadi.

### Savol-javob:

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodini nima uchun o’rganishimiz kerak?

2. Alisher Navoiyni komil insonlar qatoriga qo’shsak bo’ladimi? Nima uchun?

3. Navoiy asarlarini qanday ma’naviy ahamiyati bor?

V. Darsni yakunlash: O’quvchilar ishtirokiga ko’ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa: Navoiy hayoti va ijodini o’rganish, g’azal va ruboiylaridan yod olish